

MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI: YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Mirkomilova Nigoraxon

Madaniyat Vazirligi Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi

Farg'ona shahar 2-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi

"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha" mas'ul hodim

nnomirova@gmail.com +99893 646-79-09

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola madaniyat va san'at ta'limidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar (interfaol metodlar, loyihaviy o'qitish, integratsion ta'lim, AKT qo'llanilishi), ularning samaradorligi, madaniyat va san'at sohasida kamchiliklar va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi orqali erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar va muqobil yechimlarga haqida fikr yuritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: O'zbekiston madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlarni o'rganish uchun turli manbalar, jumladan ilmiy jurnallar va ulardagi maqolalar, virtual kutubxonalar va tahlilchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan foydalanilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari: yutuqlar va muammolar ,o'quv jarayonini interfaol shaklda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, amaliy ko'nikma va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo'naltirilgan va ularning O'zbekiston ta'lim tizimidaayanada tadbiq etish yo'llarini aniqlash, shuningdek, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi orqali erishilgan yutuqlarni va muammolarni ko'rsatishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari ularning yutuqlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rsatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlar — bu o'quvchini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga, o'zini ifoda etishga undovchi yondashuvlar haqida fikrlar bildiriladi.

XULOSA: madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlar ko'p hollarda ijobiy natijalarga erishmoqda, ammo sohadagi raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ayrim qiyinchiliklar mavjud. O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud bo'lib, bu sohaning kelajakda rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: madaniyat ,san'at, metod, yutuq, interfaol metodlar, loyihaviy o'qitish, integratsion ta'lim, AKT.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются современные педагогические подходы в образовании культуры и искусства (интерактивные

методы, проектное обучение, интеграционное обучение, применение ИКТ), их эффективность, недостатки в сфере культуры и искусства и достижения, достигнутые за счет применения цифровых технологий, имеющиеся проблемы и альтернативные решения. .

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для изучения современных методов обучения в образовательных организациях культуры и искусства Узбекистана использованы различные источники, в том числе научные журналы и статьи в них, виртуальные библиотеки и исследования аналитиков.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи Современные методы обучения в образовательных организациях в области культуры и искусства: достижения и проблемы, организация процесса обучения в интерактивной форме, направленная на развитие самостоятельного мышления, практических навыков и творческого подхода учащихся и выявление путей их практического применения в системе образования Узбекистана, а также демонстрация достижений и проблем, достигнутых посредством применения цифровых технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: современные методы обучения в образовательных организациях культуры и искусства показаны их достижения, существующие проблемы и их решения. При этом высказываются мнения о современных методах — подходах, которые активизируют читателя, побуждают к самостоятельному мышлению, самовыражению.

ВЫВОД: современные методы обучения культуре и искусству в образовательных организациях в большинстве случаев достигают положительных результатов, однако в процессе внедрения цифровых технологий в отрасли возникают некоторые трудности. В Узбекистане существует потребность в расширении цифровых возможностей учреждений культуры и искусства, что имеет важное значение для дальнейшего развития отрасли. **Ключевые слова:** культура ,искусство, метод, достижение, интерактивные методы, проектное обучение, интеграционное обучение, ИКТ

ANNOTATION: This article reflects on modern pedagogical approaches in culture and art education (interactive methods, project teaching, integrative education, ICT Applications), their effectiveness, shortcomings in culture and art and achievements through the use of digital technologies, existing problems and alternative solutions. .

MATERIALS AND METHODS: to study modern methods of teaching in the educational organizations of Culture and arts of Uzbekistan, various resources were used, including scientific journals and articles in them, virtual libraries and research conducted by analysts.

PURPOSE: the main purpose of the article is to identify ways of teaching in

educational organizations in the field of culture and art: achievements and problems , 'Organization of the process of learning in an interactive form, development of independent thinking, practical skills and creative approach of students and their implementation in the educational system of Uzbekistan, as well as to show the achievements and problems.

DISCUSSION AND RESULTS: modern methods of teaching in educational organizations of culture and art show their achievements, existing problems and their solutions. At the same time, opinions are expressed about modern methods — approaches that activate the reader, encourage independent thinking, self-expression.

CONCLUSION: modern methods of teaching in educational organizations of culture and art in many cases have positive results, but there are some difficulties in the process of introducing digital technologies in the field. There is a need to expand the digital capabilities of cultural and art institutions in Uzbekistan, which is important for the future development of the industry.

Keywords: culture, art, method, achievement, interactive methods, project training, integrative education, ICT

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlari nafaqat bilim, balki estetik did, ijodiy tafakkur, milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish vazifasini bajaradi. Shu bois o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, ularning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Madaniyat va san'at ta'limi — bu nafaqat texnika va nazariy bilimni, balki estetik qadriyat, madaniy merosni avlodga yetkazish, ijodiy fikrlashni o'stirish bo'yicha markaziy soha. Global va milliy islohotlar bu yo'nalishdagi ta'limni zamon talablariga moslashtirishni talab etadi: o'qitish uslublarini modernizatsiya qilish, AKTni joriy etish va xalqaro tajribalarni moslashtirish zarur. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda madaniyat boshqaruvi va ta'lim strategiyasini yangilab, madaniyat sohasini tizimli rivojlantirishni yo'lga qo'ygan.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida har bir sohada zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar, yangi pedagogik uslublarni joriy etish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim tizimi ham bundan mustasno emas. Ayniqsa, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish va milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Madaniyat va san'at inson ma'naviyatining, millat o'zligining asosiy ko'zgusidir. Shu bois, bu sohadagi ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning badiiy dunyoqarashini, estetik

tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ammo bu jarayonni zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkil etish hali to'liq yo'lga qo'yilgan deb bo'lmaydi. Hozirda madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi rejalar haqida gapirar ekan, shunday deydi: "Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish, madaniyat va san'atni yuksaltirish bilan bog'liq vazifalar doimiy kun tartibimizda turadi."¹ Ushbu fikrlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning madaniyat va san'at sohasida xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etishga katta e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Madaniyat va san'at – har qanday jamiyatning ma'naviy ustuni bo'lib, u milliy o'zlikni shakllantirish, ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash va xalqaro miqyosda milliy madaniyatni tanitishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy globalizatsiya sharoitida madaniyat va san'atni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'qitish metodlari deganda o'quv jarayonini interfaol shaklda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, amaliy ko'nikma va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik uslublar tushuniladi. Bugungi kunda bunday metodlarga quyidagilar kiradi:

-Interaktiv metodlar: "Aql hujumi", "Klaster", "Bumerang", "Debat", "Muammoli ta'lim" kabi usullar o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi.

-Loyiha usuli: o'quvchi mustaqil ijodiy loyiha ustida ishlaydi, bu esa uning badiiy tafakkurini kengaytiradi.

-Axborot texnologiyalaridan foydalanish: onlayn ta'lim platformalari, multimedia vositalari, virtual konsertlar yoki raqamli ekspozitsiyalar orqali o'qitish.

-Integrativ yondashuv: san'atni boshqa fanlar — tarix, adabiyot, falsafa bilan uyg'unlashtirib o'qitish.

Bu metodlar madaniyat va san'at sohasidagi ta'limni faqat nazariy emas, balki amaliy va ijodiy yo'nalishda tashkil etishga imkon beradi. Ammo ularni to'liq amalga oshirish jarayonida ko'plab muammolar yuzaga chiqmoqda. Madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni ijodkorlik, tasavvur va estetik idrokni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Zamonaviy metodlar — bu o'quvchini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga, o'zini ifoda etishga undovchi yondashuvlardir.

2. O'qitishning zamonaviy shakllari va texnologiyalari

Bugungi kunda o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) keng joriy etilmoqda. Masalan:

¹ <https://daryo.uz/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-ingurustsiya-marosimida-sozlagan-nutqi>

-Multimedia taqdimotlari orqali o'quvchilarga musiqiy asar, rasm yoki teatr sahnasini chuqur tahlil qilish imkoniyati beriladi.

-Onlayn platformalar yordamida dunyoning turli muzeylari, galereyalari yoki konsert zallariga virtual sayohatlar tashkil etiladi.

-Audio va video tahlil usullari orqali o'quvchilar mashhur rassomlar, bastakorlar va aktyorlarning ijodini chuqur o'rganadilar.

Bu texnologiyalar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, estetik baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Zamonaviy metodlarning madaniyat va san'at ta'limidagi yutuqlari

Zamonaviy o'qitish metodlari quyidagi yutuqlarga olib kelmoqda:

- Ijodkorlikni rivojlantirish – o'quvchilar mustaqil asar yaratishga, yangi g'oyalarni ilgari surishga o'rganadilar.

-Milliy va jahon madaniyatini uyg'un o'rganish – interfaol darslar orqali o'quvchilar o'z milliy qadriyatlarini xalqaro tajriba bilan solishtira oladi.

-Motivatsiyaning oshishi – yangi metodlar darslarni qiziqarli, interfaol va samarali qiladi
-Tanqidiy fikrlashni shakllantirish – o'quvchilar o'z fikrini asoslab, ijodiy tahlil qilishni o'rganadi.

-O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining kuchayishi – zamonaviy metodlarda o'qituvchi rahbar, yo'naltiruvchi sifatida qatnashadi, bu esa o'quvchini faol ishtirokchi qiladi.

- Innovatsion ta'lim loyihalari va amaliy tajribalar.

So'nggi yillarda O'zbekistonning ko'plab san'at maktablari va kollejlari "Ijodiy laboratoriyalar", "Raqamli san'at", "Onlayn konsertlar", "Virtual galereyalar" kabi tashabbuslar yo'lga qo'yildi. Masalan, Farg'ona shahar bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qituvchilar "Raqamli cholg'ular", "Onlayn ijro" va "Integratsion darslar" kabi yangi metodlardan foydalanishmoqda. Bu tajribalar o'quvchilarning texnik mahorati va sahna madaniyatini zamonaviy darajada shakllantirishga xizmat qilmoqda. Boshqa bir tarafdin Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlarining muammolari ham mavjud.

Bular: 1. O'qituvchilarning malaka va ko'nikma darajasi.

Madaniyat va san'at yo'nalishidagi ko'plab o'qituvchilar o'z sohasida yuqori ijodiy salohiyatga ega bo'lsalar-da, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda tajriba yetishmaydi. Ular ko'pincha an'anaviy dars o'tish shaklidan chetlasha olmaydi. Bu hol o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, yangi g'oyalar bilan chiqish imkoniyatlarini cheklaydi. Masalan, raqamli texnologiyalar asosida dars tashkil etish, virtual laboratoriyalar yoki musiqiy dasturlarni qo'llash bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan

2. Texnik va moddiy ta'minotning sustligi.

Bugungi kunda zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash uchun ta'lim muassasalari texnik jihatdan to'liq jihozlangan bo'lishi kerak. Ammo ko'plab madaniyat va san'at maktablarida hali ham eski texnika ishlatilmoqda, multimedia vositalari, internet tarmog'i, interaktiv doskalar va audio-video asboblari yetarli emas. Natijada raqamli metodlarni joriy etish imkonini cheklanganligi.

3. O'quv dasturlari va metodik materiallarning eskirganligi.

San'at va madaniyat yo'nalishidagi o'quv dasturlari ko'p hollarda zamon talabiga mos ravishda yangilanmagan. Ular o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yetarli darajada yo'naltirilmagan. Shuningdek, ayrim fanlarda milliy va jahon tajribasi o'rtasidagi integratsiya yetarlicha ta'minlanmagan. Bu esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini cheklab, ta'lim jarayonini bir yoqlama, nazariy holatda qoldiradi.

4. O'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi pastligi.

Zamonaviy metodlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faol ishtiroki zarur. Afsuski, ba'zi ta'lim muassasalarida o'quvchilarning motivatsiyasi past, ularning ijodiy faoliyatga bo'lgan ishtiyoqi sust. Sababi – darslar bir xil, takroriy shaklda o'tiladi, interaktiv muhit yaratilmaydi. Shuningdek, o'quvchilarning ishtirokini rag'batlantiruvchi tanlovlar, ko'rgazmalar, sahna chiqishlari yetarli darajada o'tkazilmaydi.

5. Amaliy mashg'ulotlar uchun sharoit yetishmasligi.

Madaniyat va san'at ta'limining eng muhim jihati — bu amaliy faoliyat. Biroq ko'plab o'quv yurtlarida sahna, rassomlik ustaxonalari, musiqiy asboblari, ovoz yozish studiyalari yoki badiiy laboratoriyalar yetarli emas. Shu sababli talabalarning amaliy ko'nikmalari nazariy bilim darajasida qolib ketmoqda.

Muammolarni hal etish yo'llari

1. O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish

O'qituvchilar uchun muntazam seminar, trening, master-klasslar tashkil etish, ularni raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish zarur. Bundan tashqari, yosh pedagoglarni xorijiy tajriba asosida stajirovkalarga yuborish foydali natijalar beradi.

2. Texnik bazani mustahkamlash.

Madaniyat va san'at maktablarini zamonaviy texnika, multimedia vositalari, raqamli asboblari bilan ta'minlash, internet infratuzilmasini yaxshilash kerak. Bu o'quv jarayonini interfaol va samarali tashkil etish imkonini beradi.

3. O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish.

Har bir fan bo'yicha o'quv dasturlarini zamonaviy pedagogik talablarga moslashtirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda qayta ishlash lozim. Dasturlarda ijodiy fikrlash, mustaqil loyiha tayyorlash, amaliy ishlar ulushi oshirilishi zarur.

4. O'quvchilarni rag'batlantirish tizimini yaratish.

O'quvchilarni tanlovlar, ijodiy loyihalar, ko'rgazmalar, sahna chiqishlari orqali rag'batlantirish, ularning yutuqlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish motivatsiyani oshiradi.

5. Hamkorlikni kengaytirish.

Oliy o'quv yurtlari, madaniyat vazirligi, san'at uyushmalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qo'shma loyihalar tashkil etish, tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Xulosa

Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash bugungi kunning eng muhim talabi hisoblanadi. Zero, bu yo'nalish jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojida beqiyos o'rin tutadi. Mavjud muammolarni hal etish orqali madaniyat va san'at ta'limining sifatini oshirish, yoshlarning ijodiy salohiyatini to'liq ochish, milliy va jahon madaniyatini chuqur o'zlashtira oladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Zamonaviy metodlar faqat texnik vositalarni qo'llash emas, balki o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quvchi bilan muloqot madaniyati, darsni ijodiy tashkil etish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Shunday ekan, bu jarayon tizimli islohotlar, doimiy yangilanish va ijodkorlik ruhini talab etadi.

Kelajakda madaniyat va san'at ta'limida innovatsion metodlar to'liq joriy etilgan holda, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, ijodkorlik va erkin fikrlash muhitini yaratish — eng ustuvor maqsad bo'lib qoladi.

Asosiy foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO — UNESCO Member States adopt global framework to strengthen culture and arts education. Feb 15, 2024.
2. O'zbekiston Prezidentligi va hukumat farmonlari — madaniyat sohasidagi boshqaruv va islohotlar (Lex.uz hujjatlari, 2023–2024).
3. Zhang L. et al., A study of the impact of project-based learning on student outcomes. PMC, 2023. (meta-analiz / tadqiqot natijalari).
4. ÖZKAN ZC, The Effect of Project-Based Learning in Visual Arts Lesson... 2023.
5. OpenLearn / The Open University — case studies on digital arts collaboration and ICT in art teaching.
6. Concordia / UNESCO-backed study on arts education and academic outcomes (kommentariya va dalillar).
7. Turayev J.R. Madaniyat va san'at sohasiga jalb etilgan xorijiy tajribalar natijalari va tahlili. // Inter education & global study. 2025. №1 B.533–540.